

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FUQAROLIK  
HUQUQI FANIDAN MALAKA TEST SINQVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN FUQAROLIK HUQUQI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Fuqarolik huquqi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

Fuqarolik huquqiga kirish

1. Fuqarolik huquqiga kirish fani predmeti, metodlari, tamoyillari, manbalari
2. Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari. Fuqarolik huquqi obyektlari. Mulk huquqi va turlari. Majburiyat huquqi va usullari. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik.
3. Fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi, predmeti, manbalari, prinsiplari, protsessual munosabatlar, fuqarolik ishlarining sudlovga taalluqliligi, fuqarolik protsessida taraflar, fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Fuqarolik huquqiga kirish fani predmeti, metodlari, tamoyillari, manbalari	Fuqarolik huquqiga kirish fani predmeti, tizimi, metodlari, tamoyillari, manbalarini o'rganish. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud, shaxslar doirasida amal qilishi, qonun va huquq analogiyasi, fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lish	11 ta
2	Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari. Fuqarolik huquqi obyektlari. Mulk huquqi va turlari. Majburiyat huquqi va usullari. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik	Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi, fuqarolik huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari, fuqarolik huquqi obyektlari mulk huquqi va turlari bo'yicha tushunchalar o'zlashtiriladi. Majburiyat huquqi tushunchasi, vujudga kkelish asoslari va majburiyatni ta'minlash usullari, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	15 ta
3	Fuqarolik protsessual huquqi, protsessual munosabatlar, fuqarolik ishlarining sudlovga taalluqliligi, fuqarolik protsessida taraflar, fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar	Fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi, predmeti, manbalari, prinsiplari, protsessual munosabatlar, fuqarolik ishlarining sudlovga taalluqliligi, fuqarolik protsessida taraflar, fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	14 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%

2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Topildiyev V.R., Fuqarolik huquqi [Matn]: Darslik – Toshkent: 2022
2. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik – Toshkent: 2025

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari

*to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*